

CHANG OILASI

*O'ZDSMIFMF "Xalq ijodiyoti"**Professional: ta'lif cholg'u**Ijrochiligi 3- bosqich talabasi**Qudratullayeva Ehtiromxon.**Ilmiy rahbar: Rafiqjon Ahmedov**O'ZDSMIFMF katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Xalq cholg’ulari” ning nufuzli oilasi ya’ni urma zarbli cholg’ular guruhiga mansub chang oilasi va uning kelib chiqish tarixi haqida ma’lumotlar mavjud.

Kalit so’zlar: Timbal, santur, xramatik, chang, qonun, Belarus, Ukraina, shakilda, diyez, diyapazon, texnik, registirlar, pedal, oktava, tarofat.

Chang juda qadimgi cholg’u hisoblanadi. Bu haqida uzoq o’tmishda yashab ijod qilgan, o’lmas asarlarni yozib qoldirgan olimlar va shoirlar merosida yetarlicha ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Abu Nasr Farobi (873- 951) “Kitob al-musiqiy al-Kabir” ya’ni “Musiqa haqida katta kitob” risolasida chang haqida o’z fikrini bildirgan. Farobi chang cholg’usining jo’r bo’lish xususiyati haqida gapirar ekan, bu sozning har xil adabiy majlislar va tantanavor marosimlarda cholg’u ansambl tuzulmalarida muvaffaqiyatli qo’llanilganini mammuniyat bilan qayd qilgan. Mashhur musiqa shunos, mahoratli changchi, bastakor va hofiz Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub “Risolai-musiqiy” kitobida chang sozi va sozandalari alohida qayd etilgan.

Chang – qadimiy musiqiy cholg’u hisoblansa-da bizning yurtimizga XX asrning boshlarida kirib kelgan. Dastlab diatonik tovush qatoriga ega bo’lgan chang musiqiy mutaxassislar va chalg’u ustalari tomonidan takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan. Chang yakka holda va cholg’u jamoalari tarkibida ishlatiladi. O’zbek xalq cholg’ulari orkestirining “Urma torli cholg’ular guruxi”ga chang, changga o’xshash shakilda va ko’rinishda tortilgan torlari bo’lgan cholg’ulardan biri qonun cholg’usi ham kiradi.

Chang markaziy osiyo davlatlarida keng tarqalgan xalq cholg’ularidandir. Belarus va Ukrainlarda bu turdagи cholg’ular timbal, kavkazorti halqlarida esa santur deb ataladi. XVII asrda changda 26 ta tor bo’lib, yetta parda mavjudligi diqqatga sazovordir. Changda o’ng ikki maqomning hammasini mukammal ijro eta bilish Darvesh Ali yashagan o’sha davrda ham sozandalarning yuqori darajadagi mahoratini yuzaga chiqaruvchi omillardan biri bo’lgan. Asrimizning boshlarida o’lkamizning ba’zi shaharlarida cholg’u sozi ustalari boshqa cholg’ular qatori chang sozining tuzilishi va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish, sifatini yahshilash uchun ko’p

izlanishgan. Qadimgi davir changida tovushqatori diatonik bo'lib, diyapazoni uncha keng bo'lmanan ya'ni "lya" bemol katta oktavadan "re" bemol ikkinchi oktavagacha edi. Vanihoyat 1938- yilda xalq cholg'ularining an'anaviy changi asosida to'liq xramatik tovushlarga ega bo'lgan yangi chang yaratildi. Uning diyapazoni "do" birinchi oktavadan "re" diyez uchinchi oktavagacha bo'lgan tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu kiritilgan yangiliklar natijasida, chang cholg'usida o'zbek kuylaridan tashqari qolgan barcha halqlarning musiqa asarlarini va kompazitorlar ijrosini o'zlashtirishga imkoniyat yaratildi. Chang chaluvchi sozandaga qulaylik yaratish va ijro mahoratini yanada ta'minlash maqsadida changga yog'ochdan uchta maxsus 82 santimetirlik oyoqlar o'rnatildi. Ijro payitida chang tovushlarini vaqtı-vaqtı bilan so'ndirib turish uchun va chaqqon texnik mahorat bilan ijro etiladigan asarlarning sof sadolanishi uchun pedal mehanizimi bilan boshqariladigan dempfer qurulmasi o'rnatilgan. Lekin bu bilan changdi takomillashtirish ishi tugadi degan hulosaga kelib qolmaymiz, albatta. Chunki changda ayrim kamchiliklar mavjud. Masalan tepki mehanizimi hali mukammal emas, ayrim registirlar bir tekkis tovush bermaydi. Chang quloqlari tiniq sozni uzoq ushlamaydi. Shubha yoqki changni takomillashtirish ustida olib boriladigan bundan keyingi ishlar bu mavjud nuqsonlarni tuzatish imkonini beradi.

Changda yahshi jarangdor tovush chiqarish cholg'uning sifatiga bog'liqdir, shuningdek uni sozlashda cholg'u torlarining bir xilligiga va qulqlarining tengligiga e'tiborni qaratish lozim. Changda yahshi musiqa ijro etish uchun cholg'u oldida o'tirishni ya'ni pastanofkani yahshi qo'ymoq zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho'plarning torlarga urilgan zarblarga bog'liqdir. Urma – zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Zarb qanchalik erkin bo'lsa, ohang shunchalik yorqin bo'ladi. To'liq va butun tovush chiqishi uchun cho'plar bilan xaraklar ustiga o'rnatilgan chang torlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Changning diyapazoni kichik oktavaning "sol" tovushidan uchinchi oktavaning "sol" diyez tovushigacha boradi. Cholg'uning takomillashtirilishi sababli chang pikkolo, chang prima, chang tenor va chang bas kabi cholg'u turlari yaratilgan. Ammo bu yaratilgan cholg'ular amalyotda o'z o'rmini topolmadi va xalq cholg'ulari orkestirida qo'llanilmay qolib ketdi. Chang cholg'usining o'rni xalq cholg'ulari orkestirida juda katta ahamiyat kasb etadi. Maskur cholg'uning ommalashuvida mashhur changchilar Fozil Xarratov, Faxriddin Sodiqov, Baxtiyor Aliyev, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Tohir Sobirov, Temir Mahmudov, Fazilat Shukurova, Tilash Xo'jamberdiyev va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir.

Qonun- qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Qonun cholg'usi – g'arb xalqlariga mansub bo'lib ilk ko'rinishi X – XI asrlarda fil suyagidan yasalgan shaklida paydo bo'lgan. Arab musiqashunos olimlarning ayon etishlaricha, taxminan XIV asrlarda yaratilgan qonun cholg'usi Ussuriya poytaxtidan topilgan. Farobiyning fikricha, qonun

eramizning birinchi asrlarida Samarqand aholisi o’rtasida juda mashhur bo’lgan. Alloma o’zining “Cholg’ular haqida” nomli kitobi “Arafa”ga taalluqli bobida aeafaga yaqin cholg’u to’g’risida ma’lumot beradi. Safi ad-Din esa, qonunning ikki xil turi mavjud bo’lganligi to’g’risida ma’lumot beradi.

Qonun – cholg’usi tirnama cholg’u asbobi bo’lib, ko’rinishi changsimon cholg’u asboblari oilasiga mansub. Qonun yuqori va pastki tembirlar orqali chalinadi. Har bir tor o’zgacha ohang chiqarish hususiyatiga ega bo’lib, musiqasi quvnoq, sho’xchang ohanglarga moslangan. Bu cholg’u asbobi turli halqlarda turlicha nomlanadi. Masalan, arab, turk ozarbayjon xalqlarida “qonun”, uyg’urlarda “qalun”, armanlarda “kanon”, slavyanlarda “gusli”, karallarda “kantelli”, estonlarda “kanelli”, latishlarda “kokles”, yaponlarda “kato”, koreyislarda “kiyagin” nomlari bilan ataladi. Ular qadimiy nusxa, qonun, santur, magna kabi cholg’ulardan tarqalganligi manbalarda keltirilgan. Buyuk olim Farmerning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida, bu cholg’u olho’ri daraxti yog’ochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki, ya’ni yog’on tovush beradigan tomoni 81 santimet, qarama- qarshi tomoni 40,5nsantimet r ekanligi aytilgan va yozilgan.

Qonun sozining ilk ko’rinishi uch torli simdan iborat bo’lgan. Hozirgi ko’rinishi ancha takomillashgan bo’lib, murakkab shakilda tuzilgan. Uni yasovchi ustalarning bayon etishicha qonun cholg’usi torlarining joylashuvi juda murakkab bo’lib, ular ipak tolalardan yasalar ekan. Hozirgi kundagi qonunlarimizda o’n uchtadan iborat tori bo’lib, u ikki qo’l barmoqlari yordamida chalinadi. O’rta Osiyo xalqlari orasida, xususan, Buxoroda 1917- yilgacha keng tarqalgan. Qonun cholg’usi qadimdan hududimizda keng tarqalgan. Lekin XX asr boshlaridan to 80- yillargacha mazkur cholg’u unitila boshlagan. Mahoratlari va izlanuvchan sozandalar, xususan, Abdurahmon Xoltojiyevning sa’y – harakati tufayli, bu cholg’u yana musiqiy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansambllarda va orkestrlarda keng qo’llanilmoqda. Qonun diatonik tovush qatoriga ega. Qonunning diyapazoni kichik oktavaning “re” tovushidan 3-oktavaning “fa” tovushigachadir. Tovush kuchini orttirish maqsadida qonun torlarining ikkitasi yoki uchtasi bir xil qilib sozlanadi. Mohir ijrochilar qonunni chalishda 3 hatto 4 ta barmoqdan foydalanadilar. Bu cholg’u bugungi kunda ham o’z tarofati ila barchaning ko’nglini maftun etib krlmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev “Chang” Toshkent 2002- yil.
2. O’. Toshmatov, X. Beknazarov “Cholg’ushunoslik” Toshkent 2018-yil.
3. Sh. Raximov, A. Lutfullayev “Cholg’ushunoslik” Toshkent 2020-yil.
4. Davronov Bekzod “Cholg’u ijrochiligi” Toshkent 2019- yil.